XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI
K E N G A SH I

Samarqand t. 140300, Gulobod qo'rg'oni, 1-uy. Tel: (66) 612-51-89

2023 - yil 5 - yanvar VI-73-1-7-103-K/23 Samarqand tuman hokimligi

Samarqand tumanidagi "Qorasuv" mahallasini bo'lish hisobiga yangi mahalla tashkil etish, nomlash va qayta nomlash hamda ularning chegaralarini o'zgartirish va belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi "Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 48-sonli qaroriga asosan hamda Samarqand tumani hokimligining 2022-yil 15-dekabrdagi "Samarqand tumanidagi "Qorasuv" mahallasini bo'lish hisobiga yangi mahalla tashkil etish, nomlash va qayta nomlash hamda ularning chegaralarini o'zgartirish va belgilash to'g'risida"gi №01/3-470-sonli yig'ilish bayoniga muvofiq Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashi yetmish uchinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Samarqand tumani hokimining 2022-yil 15-dekabrdagi "Samarqand tumanidagi "Qorasuv" mahallasini bo'lish hisobiga yangi mahalla tashkil etish, nomlash va qayta nomlash hamda ularning chegaralarini o'zgartirish va belgilash to'g'risida"gi № 01/3-470-sonli yig'ilish bayoni ma'qullansin.

2. Samarqand tumani hokimligining Samarqand tumanidagi "Qorasuv" mahallasini bo'lish hisobiga yangi mahalla tashkil etish, nomlash va qayta nomlash hamda ularning chegaralarini o'zgartirish va belgilash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

3. Quyidagilar:

- tumanda bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning nomlari 1-ilovaga muvofiq;

- tumanda bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning chegaralari va tavsiflari 2-ilovaga muvofiq;

- tumanda bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning xaritasi 3-ilovaga muvofiq;

- tumanda bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning yer maydoni 4-ilovaga muvofiq;

- tumanda bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan mahallaning xonadon soni 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Samarqand tumani hokimining o‘rinbosarlari (F.Ganiyev, O.Abdullayev) Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Dj.Melikov), Moliya bo‘limi (F.Misirov), Davlat xizmatlari markazi (S.Salohiddinov), Statistika bo‘limi (F.Jabbarov), Kadastrlar palatasi tuman filiali (S.Ro‘ziev), Kadastr agentligi tuman filiali (B.Artikov), Qurilish bo‘limi (I.Rashidov) bir oy muddatda mazkur qarorga asosan hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin hamda boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlari nomlari, chegaralari, aholi va xonadonlar sonini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, elektron bazasini shakllantirish, shtat ajratish va moliyalashtirish hamda bino bilan ta’minlash, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirsinlar.

5. Samarqand tumani ichki ishlar bo‘limi (A.Raxmatov) mazkur qaror bilan yangi tuzilgan mahallalar hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6. Samarqand tumani hokimligi Axborot xizmati (B.Xonkeldiev), tuman “Gulobod tongi” gazetasi (N.Karimov)ga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan so‘ng kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Uzoqov) va tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Dj.Melikov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **A.Umarov**

Xalq deputatlari Samarqand
tuman Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-73-1-7-103-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Tumanda bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning

NOMLARI

T/r	Bo‘linadigan mahalla nomi	Bo‘linadigan mahalla qayta nomlash	Bo‘linish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla nomi	Izoh:
1.	**Qorasuv mahallasi**	**Sharof Rashidov**	**Chamanzor**	1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 16-noyabrdagi 08-10173-sonli xati 2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining ekspert xulosasi

Xalq deputatlari Samarqand
tuman Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-73-1-7-103-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Tumanda bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning CHEGARALARI VA TAVSIFLARI

“Sharof Rashidov” mahallaning 1 xaritasi chegarasi va tavsifi

Mahalla boshidan boshlanadigan Ma’rifatparvar ko‘chasi janubi-g‘arbiy tomon joyi A-boshlang‘ich nuqta deb qabul qilinsin. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°43’20.74”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°55’10”)*

A-nuqtadan chegara chizig‘i Mahalla boshidan boshlanadigan Ma’rifatparvar ko‘chasi janubi-g‘arbiy tomon joyidan boshlanib janubi-g‘arbiy tomonda joylashgan issiqxona boshlanish burchagi yo‘lning o‘rtasi, tutashuvigacha 173 metr masofada B-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°43’15.99”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°55’07.09”).*

B-nuqtadan chegara chizig‘i janubi-g‘arbiy tomonda joylashgan fermer xo‘jaligi hududi bo‘ylab “Sharif Chorva Nasl” fermer xo‘jaligining janubi-g‘arbiy tomon joylashgan yer maydoni burchagigacha 1635 metr masofada V-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°43’36.55”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°54’08.60”).*

V-nuqtadan chegara chizig‘i janubi-g‘arbiy yo‘nalishda Ma’rifatparvar ko‘chasining oxirgi burilishi, Motrid MMTP binosiga kirish yo‘li kesishuvigacha 387 metr masofada G-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°43’44.52”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°54’16.36”).*

G-nuqtadan chegara chizig‘i Ma’rifatparvar ko‘chasining oxirgi burilishi, Motrid MMTP binosiga kirish yo‘lidan Mahalla boshidan boshlanadigan Ma’rifatparvar ko‘chasi janubi-g‘arbiy tomon joyigacha 1520 metr masofada A-boshlang‘ich nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°43’20.74”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°55’10”).*

“Sharof Rashidov” mahallaning 2 xaritasi chegarasi va tavsifi

“Toir Jafarov bog‘lari” fermer xo‘jaligi yer maydonining janubiy tomon chegara burchagi joyi A-boshlang‘ich nuqta deb qabul qilinsin. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°42’10.17”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°53’55.52”)*

A-nuqtadan chegara chizig‘i “Toir Jafarov bog‘lari” fermer xo‘jaligi yer maydonining janubiy tomon chegara burchagi joyidan boshlanib janubi-g‘arbiy tomonda joylashgan fermer xo‘jaliklari chegarasi bo‘ylab janubi-g‘arbiy tomon joylashgan mahalla qabristoni burchagi tutashuvigacha 1129 metr masofada B-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°42’24.61”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°53’13.23”).*

B-nuqtadan chegara chizig‘i janubi-g‘arbiy tomonda joylashgan fermer xo‘jaligi hududi bo‘ylab “Boboev Abdurafik” fermer xo‘jaligiga qarashli shimoli-g‘arbiy tomon joylashgan issiqxona burchagigacha 1134 metr masofada V-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°42’36.66”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°53’23.86”).*

V-nuqtadan chegara chizig‘i shimoli-sharqiy tomon mahalla kirishida joylashgan ko‘p qavatli uyning burchagigacha 403 metr masofada G-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°42’47.43”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°53’39.59”).*

G-nuqtadan chegara chizig‘i shimoli-sharqiy tomon mahalla kirishida joylashgan ko‘p qavatli uyning burchagidan janubi-sharqiy tomon joylashgan “Agrolayn SB” fermer xo‘jaligi yer maydonining burchagi va mahallada boshidan o‘tuvchi ariq ustidagi ko‘prikning shimoli-sharqiy burchagigacha 371 metr masofada D-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°42’37.47”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°53’33.89”).*

D-nuqtadan chegara chizig‘i janubi-sharqiy tomon joylashgan “Agrolayn SB” fermer xo‘jaligi yer maydonining burchagi va mahallada boshidan o‘tuvchi ariq ustidagi ko‘prikning shimoli-sharqiy burchagidan “Toir Jafarov bog‘lari” fermer xo‘jaligi yer maydonining janubiy tomon chegara burchagi joyigacha 1093 metr masofada A-boshlang‘ich nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°42’10.17”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°53’55.52”).*

“Chamanzor” mahalla chegarasi va tavsifi

Zarafshon daryosi qirg‘og‘idan janubi-sharqiy tomon 106 metr masofada joylashgan va Samarqand shahri chegarasi kesishgan joyi A-boshlang‘ich nuqta deb qabul qilinsin. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°43’39.02”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°55’26.60”)*

A-nuqtadan chegara chizig‘i janubi-sharqiy tomon Samarqand shahar hududi chegarasi bo‘ylab Mahalla boshidan boshlanadigan Ma’rifatparvar ko‘chasining janubi-sharqiy tomon tutashuvigacha 894 metr masofada B-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°43’27.03”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°55’15.20”).*

B-nuqtadan chegara chizig‘i janubi-sharqiy yo‘nalishda Ma’rifatparvar ko‘chasining o‘rtasidan Ko‘klam ko‘chasi kesishuvigacha 1775 metr masofada V-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°43’40.19”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°54’14.41”).*

V-nuqtadan chegara chizig‘i janubi-g‘arbiy yo‘nalishda Ko‘klam ko‘chasidan boshlab, “Agro Barakotli sut” fermer xo‘jaligi chegarasi bo‘ylab Ko‘klam ko‘chasining oxiri chap tarafi, janubi-g‘arbiy tomon, dala hovlilar joylashgan oxirigacha 2367 metr masofada G-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°44’13.15”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°53’00.65”).*

G-nuqtadan chegara chizig‘i shimoli-g‘arbiy yo‘nalishda harbiy qism chegarasi bo‘ylab Zarafshon daryosi qirg‘ogida yetmasdan 200 metr masofagacha 313 metr masofada D-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°44’19.62”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°53’07.03”).*

D-nuqtadan chegara chizig‘i shimol yo‘nalishda Zarafshon daryosi muhofaza zonasi bo‘ylab 3925 metr masofada Zarafshon daryosi qirg‘og‘idan janubi-sharqiy tomon 106 metr masofada joylashgan va Samarqand shahri chegarasi kesishgan joyi A-boshlang‘ich nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°43’39.02”, sharqiy uzunlik koordinatlari 66°55’26.60”).*

Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-73-1-7-103-K/23-son qaroriga
3-ilova

3-ilova

Sharof Rashidov mahallasining XARITASI

1-karta



2-karta



Шартли белгилар:

- Нотурар жой
- Турар жой
- Кўп қаватли уй
- Чегара

Chamanzor mahallaning XARITASI



Шартли белгилар:

- Нотурар жой
- Турар жой
- Чегара

Xalq deputatlari Samarqand
tuman Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-73-1-7-103-K/23-son
qaroriga
4-ilova

Tumanda bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning YER MAYDONI

T/r	Bo‘linadigan mahalla umumiy yer maydoni	Bo‘lingandan keyingi mahallaga qolgan yer maydoni	Bo‘linish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahallaning yer maydoni	Izoh:
1.	**Qorasuv mahallasi 316 gektar**	**Sharof Rashidov 231 gektar**	**Chamanzor 85 gektar**	Asos: O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat Kadastrlari palatasi Samarqand tumani filialining 2022-yil 15-dekabrdagi 1483-sonli xati

Xalq deputatlari Samarqand
tuman Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-73-1-7-103-K/23-son
qaroriga
5-ilova

Tumanda bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning XONADON SONI

T/r	Bo‘linadigan mahalla jami xonadon soni	Bo‘lingandan keyingi mahallaga qolgan xonadon soni	Bo‘linish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahallaning xonadon soni	Izoh:
1.	**Qorasuv mahallasi 1441 ta**	**Sharof Rashidov 352 ta** (shundan 349 ta xanadon, 3 ta ko‘p qavatli uyda 144 ta xonadonda jami 666 nafar oila istiqomad qilmoqda**)**	**Chamanzor 1089 ta**	Asos: O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat Kadastrlari palatasi Samarqand tumani filialining 2022-yil 15-dekabrdagi 1483-sonli xati